

NIZONI SUDGACHA HAL QILISH TARTIBI (BANKLAR MISOLIDA).

O'zbekiston Respublikasida kredit va mikroqarz shartnomasi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy baza yaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 732-moddasida qarz shartnomasi ko'rsatilgan bo'lib, qarz shartnomasi bo'yicha bir taraf (qarz beruvchi) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) pul yoki turga xos alomatlar bilan belgilangan boshqa ashyolarni mulk qilib beradi, qarz oluvchi esa qarz beruvchiga bir yo'la yoki bo'lib-bo'lib, o'shancha summadagi pulni yoki qarzga olingan ashyolarning xili, sifati va miqdoriga baravar ashyolarni (qarz summasini) qaytarib berish majburiyatini oladi. Qarz shartnomasi pul yoki ashyolar topshirilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi deb ko'rsatilgan. Mazkur kodeksining 744-moddasi kredit shartnomasi ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra, kredit shartnomasi bo'yicha bir taraf - bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kreditor) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlar asosida pul mablag'lari (kredit) berish, qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi deb ko'rsatilgan. Shuningdek, «Banklar va bank faoliyati to'g'risida», «Mikromoliyalash to'g'risida»gi, «Garov to'g'risida», «Ipoteka to'g'risida»gi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ham kredit va mikroqarz shartnomasi bilan bog'liq muhim qoidalar mavjud. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi PQ-3620-sonli "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga, ayniqsa, hududlarda rioya etish hamda moliyaviy ochiqlikni kengaytirish, shuningdek, xizmat ko'rsatish madaniyati va bank tizimiga bo'lgan ishonchni yanada oshirishda bir qator muammo va kamchiliklar kuzatilayotganligi sababli 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida bir qator vazifalar belgilab berilgan bo'lib, ulardan biri: Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash ko'rsatilgan. Shundan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2018 yil 28 apreldagi №16/18-sonli qarori bilan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 2 iyulda 3030-sonli ro'yxat raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida"gi Nizom tasdiqlangan. Mazkur Nizomning 41-bandiga ko'ra, kredit shartnomasi bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganda, bank iste'molchi zimmasidagi qarz yuki yanada oshib ketishining oldini olish maqsadida muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan boshlab 7 (yetti) kalendar kuni davomida iste'molchi bilan shartnomada kelishilgan har qanday aloqa bog'lash usullaridan, shu jumladan elektron aloqa vositalaridan yoki qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usullardan foydalanib, iste'molchiga muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida xabar berishi shart. 42-bandiga ko'ra, bank qonunchilik hujjatlari talablarini hisobga olgan holda iste'mol krediti shartnomasi bo'yicha iste'molchini muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlikni qaytarish majburiyatlari bajarilmaganligi holati, muddati, summalari, tarkibi va oqibatlari haqida xabardor qilishi, iste'molchidan muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelishi sabablari haqida so'rashi shart. 43-bandiga ko'ra, iste'molchi kredit shartnomasi bo'yicha qarzning asosiy summasini qaytarish va (yoki) foizlarni to'lash muddatlarini buzganda, bank tegishli kredit shartnomasida nazarda tutilgan usulda nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan o'z talabnomasini iste'molchiga yuboradi. 44-bandiga ko'ra, bank yo'llaydigan talabnomada quyidagi axborot ko'rsatilgan bo'lishi kerak: bank nomi va uni identifikatsiyalash uchun yetarli ma'lumotlar; talabnoma rasmiylashtirilgan sanadagi iste'molchining joriy qarzi miqdori va tarkibi; qarzni to'lash usul(lar)i; iste'molchi o'z majburiyatlarini bajarishi lozim bo'lgan muddat (o'n kundan kam bo'lmasligi lozim); talabnomada ko'rsatilgan muddatgacha iste'molchi o'z majburiyatlarini bajarmasligi oqibatlari; nizoni sudgacha hal qilish usullari. 45-bandiga ko'ra, bank va iste'molchi taraflarning o'zaro roziligiga ko'ra qonunchilik hujjatlarida belgilangan nizoni sudgacha hal qilish usullarini, shu jumladan muzokaralar o'tkazish orqali, qo'llashga haqli. 46-bandiga ko'ra, iste'molchi nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan talabnomada belgilangan muddatda ko'rsatilgan talablarni lozim darajada bajarmaganda, bank sudga da'vo bilan murojaat etishga haqli deb ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023 yil 4 yanvardagi 30/10-sonli (ro'yxat raqami 3030-8, 26.01.2023 y. tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2023 y., 10/23/3030-8/0057-son) "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"ga qarorining 7-bandiga ko'ra,

41-banddan «soʻndirish jadvalini ilova qilgan holda» degan soʻzlar chiqarib tashlansin. 8-bandiga koʻra, 43-banddagi «yetkazadi» degan soʻz «yuboradi» degan soʻz bilan almashtirilsin deb koʻrsatilgan. (Qarorining 2-bandiga koʻra, mazkur qaror rasmiy eʼlon qilingan kundan eʼtiboran uch oydan keyin kuchga kiradi deb koʻrsatilgan. Qaror 2023 yil 28 apreldan kuchga kirgan). Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik prosessual kodeksining 122-moddasida arizani koʻrmasdan qoldirish asoslari koʻrsatilgan boʻlib, uning 1-qismi 10-bandiga koʻra, agar daʼvogar tomonidan nizoni javobgar bilan sudgacha hal qilish tartibiga rioya qilinmagan, bosharti bu qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan boʻlsa sud arizani koʻrmasdan qoldiradi deb koʻrsatilgan. Shuning uchun ham, bank tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi PQ-3620-sonli “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qaror va Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2018 yil 28 apreldagi №16/18-sonli qarori bilan tasdiqlangan (Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 2 iyulda 3030-sonli roʻyxat raqami bilan roʻyxatdan oʻtkazilgan) “Bank xizmatlari isteʼmolchilari bilan oʻzaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qoʻyiladigan minimal talablar toʻgʻrisida” Nizom talablarini bajarmaganligini uchun daʼvogar tomonidan nizoni javobgar bilan sudgacha hal qilish tartibiga rioya qilinmaganligi daʼvo arizani koʻrmasdan qoldirish uchun asos boʻladi.

Fuqarolik ishlari boʻyicha Fargʻona tumanlararo sudining rais oʻrinbosari I.R.Kuzibayev

2023-09-06 17:08:36